

“Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” uchun tanlov o‘tkazish to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, Jizzax viloyati tuman va shaharlarining turistik salohiyatini keng targ‘ib qilishga qaratilgan tanlov tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi (*keyingi o‘rinlarda - Vazirlik*) huzuridagi Turizm qo‘mitasi huzuridagi “Milliy PR-markazi” DUK tomonidan tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

Tanlov - “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” uchun tanlov.

Tanlov tashkilotchilari – Vazirlik huzuridagi Turizm qo‘mitasi (*keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita*), Qo‘mita huzuridagi “Milliy PR-markazi” DUK (*keyingi o‘rinlarda – Markaz*), Xalqaro festivallar direksiyasi.

Tanlov hay‘ati quyidagi tashkilotlar vakillaridan tashkil topadi: Qo‘mita, Markaz, Xalqaro festivallar direksiyasi;

3. Tanlov tashkilotchisi Tanlov shartlari va qoidalarini belgilaydi.

4. Ishtirokchilar Tanlovda individual tarzda qatnashishlari mumkin.

5. Tanlov g‘oliblari Qo‘mita va Markazning ijtimoiy tarmoqlarida e‘lon qilinadi.

6. Tanlov tashkilotchisi Tanlovni tayyorlash va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

7. Tanlov ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj”larni massmedia@nationalprcentre.com pochta-siga yuborishlari lozim.

8. Tanlov natijalari Tanlov tashkilotchilarining veb-portallari (www.uzbektourism.uz, www.uzbekistan.travel va ularning Telegram, Instagram, Facebook ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari)da tadbirning oxirgi kunida e‘lon qilinadi .

2-bob. Tanlovning asosiy maqsad va vazifalari

9. Tanlovning maqsadi:

- O‘zbekistonning, xususan, Jizzax viloyatining turizm salohiyatini, madaniy merosini targ‘ib qilish va xorijdagi turistlarni O‘zbekistonga jalb qilish maqsadida “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovini o‘tkazish.

10. Tanlovning vazifalari:

- “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” mavzusidagi takrorlanmas videorolik va suratlar olish;

- tadbirga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy mehmonlar sonini oshirish;
- Jizzax viloyatidagi diqqatga sazovor joylarni dunyoga tanitish;
- tanlovda faol qatnashgan ishtirokchilarni munosib rag‘batlantirish.

3-bob. Tanlov o‘tkazish tartibi va kalendar rejasi

11. Tanlov tadbir doirasida o‘tkaziladi.

12. Tanlov ishtirokchilar tomonidan barcha shartlar bajarilganligini baholash bo‘yicha tashkil etilgan ishchi guruh a‘zolari tomonidan shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

13. Tanlovning kalendar rejasi quyidagilardan iborat:

- Tanlov haqidagi e‘lonni tayyorlash hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng ko‘lamda www.uzbektourism.uz, www.uzbekistan.travel veb-portallari va ularning Telegram, Instagram, Facebook ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida yoritish - 2024-yil 15-iyundan;

- Tanlovning barcha tashkiliy jarayonlari Tanlov tashkilotchilari - Qo‘mita va Markaz hamda Xalqaro festivallar direksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

- Tanlov tashkilotchisi tomonidan g‘olibni aniqlash va taqdirlash marosimini o‘tkazish – tadbir doirasida;

- Tanlov yakunlari haqidagi ma‘lumotlarni tayyorlash hamda ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilish – tadbir doirasida.

4-bob. Tanlov qatnashchilari taqdim qilgan materiallarga qo‘yiladigan talablar, g‘oliblarni aniqlash mezonlari va monitoring qilish tartibi

14. Tanlov quyidagi talablar asosida o‘tkaziladi:

-“Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovida videorolik 3 minutlik bo‘lishi, foto sifati talab darajasida bo‘lishi;

-“Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovi Jizzax viloyatining diqqatga sazovor joylarini targ‘ib qilishga asoslangan bo‘lishi;

-“Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovi talablariga to‘g‘ri kelishi;

-Adabiy til normalariga javob berishi;

-Asoslantirilgan ma‘lumotlarga ega bo‘lishi.

5-bob. Tanlovda ishtirok etish tartibi va shartlari

15. “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovi materiallari tadbir uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak;

16. “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovi Jizzax viloyatining diqqatga sazovor joylarini targ‘ib qilishga asoslangan bo‘lishi kerak;

17. “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovi materiallari tanlov talablariga to‘g‘ri kelishi kerak (ekspozitsiya, kulminatsiya, final);

18. Foydalanilgan matnlar adabiy til normalariga javob berishi kerak;

19. Asoslantirilgan ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak;

20. Salbiy taassurot qoldiradigan bo‘lmasligi kerak;

21. Tanlov ishtirokchisi (*muallifi*) sifatida O‘zbekiston fuqarolari, O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham qatnashishlari mumkin.

22. Tanlov ishtirokchisi faqat bitta ijod namunasi bilan Tanlovda ishtirok etishi mumkin.

23. “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” tanlovida quyidagilardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi:

23.1. Millatlararo janjallarni qo‘zg‘atuvchi mazmunidagi millatchilik va ekstremistik chaqiriqlar, giyohvand moddalarni tarqatishga, davlatga va Konstitutsiyaga qarshi mazmundagi taqiqlangan bayonotlar hamda shu kabi bayonotlarga xizmat qiluvchi lavhalar;

23.2. Shahvoniy hirs uyg‘otuvchi sahnalar va (yoki) zo‘ravonlik, buzg‘unchilik sahnalari, shuningdek odamlar va hayvonlarning jismoniy azoblanishini aks ettiruvchi sahnalari bo‘lgan ijod namunasi;

23.3. Qo‘rqinchli, stressli hissiyotlar va hayajonlarni ko‘rsatuvchi matnlar, sahnalar, ovoz effektlari bor ijod namunalari.

24. Ishtirokchi taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiqligi uchun javobgardir.

25. Tanlov ishtirokchilari www.uzbektourism.uz, www.uzbekistan.travel veb-portallari va ularning Telegram, Instagram, Facebook ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalaridan biriga obuna bo‘lgan bo‘lishlari lozim.

6-bob. Tanlov qatnashchilarining ijod namunalarini baholash mezonlari

| № | Shartlar | Ballar <i>(maksimal)</i> |
|----------|--|------------------------------------|
| 1 | “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj”da videorolik 3 minutlik bo‘lishi, foto sifati talab darajasida bo‘lishi | 5 |

| | | |
|---|--|-----------|
| 2 | “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” Jizzax viloyatining diqqatga sazovor joylarini targ‘ib qilishga asoslangan bo‘lishi | 15 |
| 3 | “Eng yaxshi selfi”, “Eng yaxshi foto”, “Eng yaxshi audio, videorolik”, “Eng yaxshi reportaj” talablariga to‘g‘ri kelishi | 10 |
| 4 | Adabiy til normalariga javob berishi | 10 |
| 5 | Asoslantirilgan ma’lumotlarga ega bo‘lishi | 10 |
| | Jami | 50 |

7-bob. Tanlov yakunlarini e‘lon qilish

26. Tanlov ishtirokchilari tomonidan yuborilgan ijod namunasini monitoring qilish Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

27. Tanlov natijalari, Hay‘at raisi tomonidan imzolangan protokol bilan tasdiqlanadi va Qo‘mita hamda Markaz veb-saytlari va boshqa manbalar orqali jamoatchilikka yetkaziladi.

28. Tanlov g‘olibi to‘rt nafar bo‘lib, ular esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

8-bob. Tanlovni moliyalashtirish

29. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazishda Xalqaro festivallar direksiyasi hisobidan esdalik sovg‘alari topshiriladi.

30. Tanlov g‘oliblarini qo‘shimcha taqdirlash uchun homiylar mablag‘lari ham jalb etilishi mumkin.

31. Tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish, ommaviylikni oshirish maqsadida boshqa davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari ham Tanlov tashkilotchilari va homiylari bo‘lishlari mumkin.

9-bob. Intellektual mulk huquqlari

32. Tanlovda ishtirok etish orqali ishtirokchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- Tanlovga taqdim etgan ijod namunasining qonuniy egasi hisoblanadi (plagiat ishlatmagan) va ularga nisbatan mutlaq huquqqa ega;

- Tashkilotchiga uchinchi shaxslar tomonidan ma’lumotlardan foydalanish bo‘yicha da’volar kelib tushgan taqdirda, u ushbu da’volarni qo‘ygan shaxslar bilan barcha nizolarni mustaqil ravishda va o‘z hisobidan hal qilish majburiyatini oladi;

- agar uchinchi shaxslar sudda yoki boshqa tarzda Tashkilotchining ma’lumotlardan foydalanish huquqiga e’tiroz bildirsa, ishtirokchi Tashkilotchi tomonidan ish yuritishda ishtirok etishi va Tashkilotchi tomonidan ma’lumotlardan foydalanishning qonuniyligini isbotlashi shart;

- agar ishtirokchi ma’lumotlardan foydalanish va tasarruf etishning qonuniyligini isbotlay olmasa va Tashkilotchi javobgar bo‘lsa, ishtirokchi sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida Tashkilotchining sud va/yoki nizoni ko‘rib chiquvchi boshqa organ xarajatlari,

Tashkilotchidan uchinchi shaxs foydasiga undiriladigan summa, sud jarayoni bilan bog'liq boshqa xarajatlarni qoplashi shart.

- Tashkilotchiga mualliflik huquqi va/yoki turdosh huquqlar egalaridan, ularning vakolatli vakillaridan yoki uchinchi shaxslardan Tashkilotchi tomonidan ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha da'volar kelib tushgan taqdirda, ishtirokchi uchinchi shaxslar bilan tegishli da'volar bo'yicha barcha nizolarni o'z hisobidan hal etish majburiyatini oladi.

- ishtirokchi Tanlovda qatnashish orqali Tashkilotchiga tanlovga yuborilgan ssenariyni ko'paytirish, ulardan nusxa olish, nashr etish, namoyish qilish (ommaviy) hamda har qanday vositalar yordamida, shu jumladan, efir va kabel televideniyesi orqali, Internetda, shuningdek, Tanlov bo'yicha taqdim etilgan materiallarni ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish (nashr) qilish huquqini bermaydi.

- tanlovda g'oliblar bilan intellektual mulkka nisbatan mulkiy huquqlar tanlov tashkilotchisiga o'tishi to'g'risidagi shartnoma imzolanadi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Tanlovni o'tkazish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Tanlov tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi. O'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladigan taqdirda, bu haqda ijtimoiy tarmoqda e'lon qilinadi.

34. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.